

Fayziyeva Aziza Anvarovna

*Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
Buxoro davlat universiteti*

Файзиева Азиза Анваровна

*преподаватель кафедры английского языка и литературы
Бухарский государственный университет*

Fayziyeva A. A.

*teacher at the department of the English language and literature
Bukhara State University*

J.K.ROULINGNING ANGLIYA BOLALAR VA O'SMIRLAR ADABIYOTI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

ВКЛАД ДЖ. К. РОУЛИНГ В РАЗВИТИЕ ЮНОШЕСКО-ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ АНГЛИИ

J. K. ROWLING'S CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF ENGLISH CHILDREN'S AND JUVENILE LITERATURE

Annotatsiya. Ushbu maqolada Joan Roulingning Angliya va jahon bolalar adabiyoti qo'shgan hissasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jahon adabiyoti, bolalar adabiyoti, badiiy asar, fentezi janri

Аннотация. В этой статье рассматривается вклад Джоаны Роулинг в развитие мировой и английской детской литературы.

Ключевые слова: мировая литература, детская литература, художественная литература, жанр фэнтези.

Summary. In this article the great contribution of J. K. Rowling to development of the world and English children's literature has been analyzed.

Key words: world literature, children's literature, fiction, fantasy genre.

Butun dunyoga “Garri Potter” asari muallifi sifatida tanilgan Joan (Joanna) Ketlin Rouling 1965-yil 31-iyulda Angliyaning Glostershir shahrida samolyotsozlik muhandisi Piter Jeymz Rouling va Anna Roulinglar xonadonida dunyoga keldi.

Bolaligidanoq Rouling hikoyalar yozib turar va ularni singlisiga o'qib berardi. “Haligacha singlimga uning quyon uyasiga tushib ketgani va u yerda quyonlar oilasi uni qulupnay bilan mehmon qilgani haqidagi hikoyani so'zlab berganimni eslayman. Mening eng birinchi yozgan hikoyam (o'shanda besh yoki olti yoshda edim) Quyon nomli quyon haqida edi. Unga qizamiq toshadi va Miss Bi (Ari xonim) nomli bahaybat ari bilan boshqa do'stlari uni ko'rishga kelishadi.”

Rouling o'smir chog'ida o'z ta'biri bilan aytganda “unga mumtoz filologiyani o'rgatgan va hamisha bilim-ga chanqoqlikni qo'llaydigan” katta ammasi unga Jessika Mitfordning avtobiografik asari “Hons and Rebels” (“Ul-

ug'lar va inqilobchilar”)ning eski nusxasini sovg'a qiladi. Kitobni o'qigan kundan boshlab Mitford Roulingning qahramoniga aylanadi va u yozuvchining hamma kitoblarini birma-bir o'qib chiqadi.

Rouling o'zining “Nyu Yorker” gazetasiga bergan intervyusida o'smirlik yillarini eslab, shunday deydi: “Men o'zimni baxtli his qilmaganman. O'ylashimcha, o'sha yillar hayotimning eng yoqimsiz davri bo'lgan.”[5] Chunki onasining kasalligi va otasi bilan munosabatlarining yomonligi oilaviy hayotni murakkablashtirib yuborgan edi.

1982-yilda Rouling Oksford universitetiga kirish imtihonlarini topshiradi, ammo omadi kelmay o'qishga kira olmaydi. Shundan keyin Ekseter universitetiga o'qishga kirib, fransuz tili va mumtoz filologiya yo'nalishi bo'yicha tahsil oladi. Parijda bir yil davomida tahsil olib qaytgach, 1986-yilda Rouling Ekseter universitetini tugatadi. Keyin esa Londonga kelib, Xalqaro amnistiya tashkilotining tadqiqot bo'limiga kotiba bo'lib ishga kiradi.

1990-yilda Rouling Manchestrğa ko'chib o'tadi. O'sha yili Manchestrđan Londonga qatnovchi poyezdda keta turib, xayoliga sehgargarlik maktabida o'qiydigan bola haqidagi hikoya g'oyasi keladi. Yozuvchi "The Boston Globe"ga bergan intervyusida "To'g'risi, bu g'oya menga qayerdan kelganini bilmayman. Avvaliga Garri obrazi, keyin esa boshqa barcha qahramonlar va voqealar tasviri birma-bir ko'z o'ngimdan o'ta boshladi", deydi.[4] Rouling o'z saytida "Garri Potter"ning yaralishini shunday izohlaydi:

"Men yolg'iz o'zim yo'lovchi to'la poyezdda Londonga ketayotganimda, to'satdan Garri Potter g'oyasi xayolimga keldi. Olti yoshimdan buyon yozish bilan muntazam shug'ullangan bo'lsam ham, hech bir g'oya meni bunchalik hayajonga solmagan edi. O'z sehgargarligidan bexabar bu ko'zoynakli qorasoch bola tasviri ko'z oldimda borgan sari yaqqol namoyon bo'la boshladi. Afsuski, yonimda o'sha paytda ruchkam yo'q edi. Kelayotgan bu g'oyalarni tezda qog'ozga tushirmasam, balki ularning ancha-munchasini keyinroq unutib yuborishim mumkin edi. Shu kuniyoq "Falsafa toshi"ni yozishni boshlab yubordim". [2; 17]

O'sha yili dekabr oyida Roulingning onasi o'n yillik xastalikdan so'ng vafot etadi. Yozuvchi bunday yo'qotishdan qattiq qayg'uga tushadi, uning o'sha paytdagi ruhiy holati asarga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Yo'qotish azobini boshidan kechirgan Rouling, birinchi kitobda Garrining yo'qotishlarini batafsil tasvirlab beradi.

"Guardian" gazetasida berilgan e'lonni o'qigach, Rouling Portugaliyaning Porto shahriga ingliz tili o'qituvchisi bo'lib ishga boradi. Kechki paytda o'qituvchilik qilsa, kunduzlari asar yozishda davom etardi. O'sha paytda u portugaliyalik journalist Jorj Arantes bilan tanishib, 1992-yilda u bilan turmush quradi. Oradan bir yil o'tib, 1993-yil 27-iyulda qizlari Jessika Izabel Rouling Arantes dunyoga keldi. Afsuski, ularning turmushi uzoqqa cho'zilmadi, o'sha yili noyabr oyida ular ajrashishga qaror qilishadi. Rouling qizi va "Garri Potter"ning uch bobini olib Edinburgda yashaydigan singlisinikiga ko'chib boradi. Turmushi buzilib, qo'lida chaqalog'i bilan ishsiz qolgan kunlarini Rouling aslida muvaffaqiyatsizlikdan qutulish davri bo'lgan, deb eslaydi: "Muvaffaqiyatsizligim aslida keraksiz narsalardan xalos bo'lish davrim edi. O'sha paytdan boshlab men o'zimni aldashni bas qildim va endi bor kuchimni men uchun ahamiyatli bo'lgan asarimni tugatishga sarflay boshladim. Agar o'sha davrda boshqa sohada muvaffaqiyatga erishganimda, hozir aslida menga yoqadigan ish bilan shug'ullanmayotgan bo'lar edim. Men ozod bo'lgandim, chunki men eng qo'rqqan voqea allaqachon sodir bo'lgandi. Ammo men haliyam tirik edim, menga kuch beradigan qizim, eski mashinkam va buyuk g'oyam bor edi. Shunday qilib, muvaffaqiyatsizligim hayotimni yangidan qurishim uchun asos bo'ldi". [6]

Xuddi shu davrda Roulingga shifokorlar klinik depressiya tashxisini qo'yishadi, yozuvchi bergan intervy-

usida o'sha paytda xayoliga o'z joniga qasd qilish fikri kelganini tan oladi. Asarning uchinchi kitobida tasvirlangan ruh so'ruvchi dementorlar g'oyasi o'sha ruhiy holatini eslaganda kelgan. Ammo o'zini qo'lga olishga kuch topa olgan Rouling 1995-yilda Edinburg universiteti qoshidagi Morey ta'lim maktabida o'qituvchi tayyorlash kurslarida tahsil oladi. Bu vaqtga kelib, u hali ham davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy himoya hisobiga kun ko'rardi. Rouling "Garri Potter"ning birinchi kitobini yozib bo'lgach, uni nashr qildirish uchun 12 ta nashriyotga yuboradi, biroq hech bir nashriyot asarni qabul qilmaydi.[1;168] Bir yil davomida asarini nashr qildirolmay yurgan Rouling Londondagi Bloomsbury nashriyoti tahrirchisi Berrri Kanninghemdan kitobni chop etishga ruxsat oladi. Nashriyot kitobni chiqarishga ruxsat bergan bo'lsa-da, Kanninghem yozuvchiga bolalar uchun asar yozishdan ko'p daromad kelmasligini aytib, tezda boshqa qo'shimcha ish ham topishi kerakligini maslahat beradi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, 1997-yilda Shotland san'at kengashi Roulingga asarni yozishni davom ettira olishi uchun 8000 funt taqdim etishadi.

1997-yil iyun oyida "Harry Potter and the Philosopher's stone" ("Garri Potter va falsafa toshi") 1000 nusxada bosib chiqariladi, shundan 500 nusxasi kutubxonalariga tarqatiladi. Besh oy o'tgach, kitob birinchi mukofot "Nestle Smarties Book Prize"ni qo'lga kiritadi, fevral oyida esa "British Book Award", keyinroq "Children's Book Award" kabi kitob taqdimotlarda "Yil kitobi" nominatsiyasi bo'yicha mukofotlanadi. 1998-yilda o'tkazilgan auktsionda Scholastic Inc. nashriyoti 105.000 dollar pul tikib, kitobni AQSHda nashr etish huquqini qo'lga kiritadi. Oktabr oyida kitob "Harry Potter and the Sorcerer's stone" ("Garri Potter va sehgargar toshi") nomi bilan nashrdan chiqdi. Birinchi kitobda muallifning o'z ismi Joanna Rouling to'liq yozilgan edi. Ammo o'g'il bolalarning ayol yozuvchilar tomonidan yozilgan kitoblarni o'qishni xushlamasliklarini hisobga olib, noshirlar adibadan ismi o'rni-ga ikkita initsial ishlatishini maslahat berishdi. Shuning uchun Rouling keyingi kitoblarni J.K. Rouling taxallusi ostida nashr ettirdi.

Asarning davomi "Harry Potter and the chamber of secrets" ("Garri Potter va maxfiy xona") 1998-yil iyul oyida dunyo yuzini ko'rdi. Bu safar ham Rouling kitobi uchun "Nestle Smarties Book Prize" mukofotini qo'lga kiritdi. Oradan bir yil o'tib chop etilgan uchinchi kitob "Harry Potter and the prisoner of Azkaban" ("Garri Potter va Azkaban mahbusi") ham yuqoridagi mukofot bilan taqdirlangach, Rouling mukofotni uch marotaba ketma-ket qo'lga kiritgan birinchi yozuvchi bo'ldi. "Garri Potter"ning to'rtinchi kitobi "Harry Potter and the goblet of fire" ("Garri Potter va olovli jom") Buyuk Britaniya va AQSHda bir kunda, 2000-yil 8-iyulda sotuvga chiqarildi. Buyuk Britaniyada birinchi kuni 400 mingga yaqin,

AQSHda esa 48 soat ichida 3 million nusxada sotilgan kitob eng tez sotilgan kitoblar rekordini yangiladi. Ammo yozuvchi to'rtinchi qismni yozish davrida ijodiy inqirozga duch kelganini tan oladi: "To'rtinchi kitobning yarmiga kelganimda, syujetda jiddiy xatoga yo'l qo'yganimni angladim. Shunda bitta bobni o'n uch marta qayta yozishimga ham to'g'ri kelgan. Biroq kitobni o'qiganlar u aynan qaysi bob ekani va menga nechog'lik qiyinchilik tug'dirganini bilishmaydi". [3] Aynan shu kitob uchun 2000-yilda Rouling British Book Awardsda "Yil yozuvchisi" unvoni bilan taqdirlandi. Kitobning beshinchi qismi "Harry Potter and the order of phoenix" ("Garri Potter va qaqnus ordeni") oradan 3 yil o'tib, 2003-yilda nashrdan chiqdi. 2005-yil iyulda oltinchi kitob "Harry Potter and half-blood prince" ("Garri Potter va shahzoda tilsimi") sotuvga chiqqach, birinchi kuniyoq 9 million nusxada sotildi va yana rekord natija o'rnatildi. Asarning so'nggi yettinchi kitobi "Harry Potter and the deathly hallows" ("Garri Potter va ajal tuhfalari") 2007-yil 21-iyulda Buyuk Britaniya va AQSHda

sotuvga chiqdi, bu galgi natija avvalgi rekordlarni yana yangiladi: kitob bir kunda 11 million nusxada sotildi. Shunday qilib, 1997-yildan nashr etila boshlangan "Garri Potter" 2007-yilga kelib o'z nihoyasiga yetdi. Hozirda "Garri Potter" ommaviy brend sanalib, uning qiymati 15 milliard dollar deb baholangan. Kitobning oxirgi to'rt qismi eng tez sotilgan kitoblar sifatida rekord o'rnatgan.

2012-yilda Roulingning agentligi o'z saytida yozuvchining kattalarga mo'ljallangan asari yaqin orada nashrdan chiqishi haqida e'lon qildi. Yangi asar taqdimotiga bag'ishlangan jurnalistlar bilan uchrashuvda Rouling "Garri Potter"ni yozishdan benihoya zavq olgan bo'lsamda, yangi kitobim avvalgisidan umuman farq qiladi" deydi. Roulingning bu yangi asari "Casual vacancy" ("Tasodifiy bo'sh o'rin") deb nomlanib, unda sinfiy, ijtimoiy va siyosiy muammolar ko'tarib chiqilgan. Kitob sotuvga chiqarilgach, uch hafta davomida 3 million nusxada sotilib, yilning bestseller asarlari qatoridan joy oldi.

Adabiyotlar

1. Bilton, Ch., Cummings, S. Handbook of Management and Creativity. Edward Elgar Publishing, 2014.
2. Fenske, Claudia. Muggles, Monsters and Magicians: A Literary Analysis of the Harry Potter Series. — Frankfurt: Peter Lang Publishing, 2008.
3. Johnstone, Anne. The hype surrounding the fourth Harry Potter book belies the fact that Joanne Rowling had some of her blackest moments writing it — and that the pressure was self-imposed a kind of magic. — The Herald. July 8, 2000.
4. Loer, Stephanie. All about Harry Potter from quidditch to the future of the Sorting Hat. — The Boston Globe. October 18, 1999.
5. Parker, Ian. Mugglemarch. — The New Yorker. October 1, 2012.
6. Rowling, J. K. The Fringe Benefits of Failure, and the Importance of Imagination. / Text of J. K. Rowling's speech at the Harvard Commencement Ceremony. — Harvard Gazette. June 5, 2008.